



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

No 1



2026

ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 2026-yil, yanvar.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'o'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukurimova Dinara Rustamxonovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjavevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

INSON KAPITALINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....	52
Dilnoza Ruziqulova Xoliqovna	
MAHALLIY BUDJET DAROMADLAR BAZASINI BAHOLASH SAMARADORLIGINI TAKOMILLASHTIRISH.....	56
Isoqov Zafarjon Zokirjonovich	
INNOVATSION IQTISODIYOTDA AYOLLAR TADBIRKORLIGINI RIVOJLANTIRISH BO'YICHA XALQARO TAJRIBA	60
Maksumova Umidaxon Sadikjonovna	
ОЛИГОПОЛИЯ И ТЕОРИЯ ИГР.....	64
Камилова Наргиза Абдукаххоровна, Наимов Самандар Раджабович	
ЦИФРОВЫЕ ИНВЕСТИЦИИ НА ЖЕЛЕЗНОДОРОЖНОМ ТРАНСПОРТЕ: НОВАЯ ЭРА ЭФФЕКТИВНОСТИ	67
Каракулов Фарход Зайпудинович	
MEVA-SABZAVOTCHILIK MAHSULOTLARINING EKSPORT SALOHİYATINI BOSHQARISH SAMARADORLIGINING INNOVATSION YECHIMLARI	72
Ergashev Jamshid Axmadaliyevich	
MOLIYAVIY AKTIVLARNING IQTISODIY MOHIYATI VA TIJORAT BANKLARIDA ULARNING SIFAT MEZONLARINI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI	77
Iskandarova Munisa Hasan qizi	
MOLIYAVIY RISKLARNI BOSHQARISHDA SUN'IY INTELLEKTNI QO'LLASH IMKONIYATLARI	82
Kojiyev Jaxongir Dushabayevich, To'xtayev Kamol Po'latovich	
MARKETING VA BOZOR IQTISODIYOTI SHAROITIDA TAYYOR KIYIMLARNING RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH YO'LLARI	87
Bababekova Gulchexra Baxtiyarovna	
NAMANGAN VILOYATI QURILISH MATERIALLARI SANOATIDA MODERNIZATSIYA JARAYONLARIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR VA ULARNING IQTISODIY AHAMIYATI	93
Odilova Malika Abdushukur qizi	
TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNI TAKOMILLASHTIRISH.....	98
Toshtemirov Xojjakbar Qahramon o'g'li	
ТУРИЗМ КАК ФАКТОР УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ СТРАНЫ.....	103
Артикова Шохида Ильясовна	
MINTAQALARDA OZIQ-OVQAT SANOATI KORXONALARI INNOVATSION SALOHİYATINI BOSHQARISH METODOLOGIYASINI JORIY ETISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGI.....	107
Dadamirzayev Muzaffar Xabibullayevich	
THEORETICAL ASPECTS OF SERVICES IN THE CONTEXT OF UZBEKISTAN'S ECONOMIC TRANSFORMATION	114
Umidjon Normurodov, Qodirov Yusufbek Suyunbek ugli	
РАЗВИТИЕ ПРЕДПРИЯТИЙ ОБУВНОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ В УСЛОВИЯХ ФОРМИРОВАНИЯ МАРКЕТИНГОВЫХ ИННОВАЦИЙ	120
Расулов Нозимжон Набиджонович	
QISHLOQ XO'JALIGI SOHASIDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARNING JORIY QILINISHI VA UNI OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDAGI AHAMIYATI.....	125
Saburov Jumanazar Saliyevich	
KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISHNING IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI VA ICHKI BOZORNI KENGAYTIRISH IMKONIYATLARI	129
Mayliyeva Sadoqat Safayozovna	
ЭКОНОМИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ ТРАНСПОРТНОЙ ИНФРАСТРУКТУРЫ В УСТОЙЧИВОМ РАЗВИТИИ УЗБЕКИСТАНА.....	134
Убайдуллаев Худоёр Бахтиёр угли	



MINTAQANI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA PAXTA-TO'QIMACHILIK KLASTERLARI SALOHİYATIDAN SAMARALI FOYDALANISHNING XORIJIY TAJRIBASI.....	141
<i>Xayitov Rustam Burxonovich</i>	
BARQAROR MOLIYALASHTIRISH KONSEPSIYASIGA MUVOFIQ "YASHIL" INVESTITSIYALARNI RIVOJLANTIRISH.....	146
<i>Abduraxmonov Alimardon Sodiq o'g'li</i>	
BANK XIZMATLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA RAQAMLI MARKETINGDAN FOYDALANISH.....	151
<i>Dushamov Maxmudjon Maksudbekovich</i>	
HUDUDLARDA TURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING AHAMIYATI VA ISTIQBOLLARI	159
<i>Ibodova Dilsora Ibo dovna</i>	
INVESTITSION PORTFELLARNI SHAKLLANTIRISH, BAHOLASH VA BOSHQARISH.....	165
<i>Baymanova Mavlyuda Djurayevna, Abdullaeva Shohista</i>	
KICHIK XIZMATLAR FAOLIYATINI RASMIYLASHTIRISH ORQALI AHOLI BANDLIGI KO'RSATKICHLARINI OSHIRISH.....	170
<i>Xalimbetov Farxad Bagibekovich</i>	
MONOPOLIYAGA QARSHI BOSHQARUV TIZIMINI RIVOJLANTIRISH: XORIJIY TAJRIBA VA MILLIY YONDASHUVLAR.....	173
<i>Akbarov Jasur Ikromjon o'g'li</i>	
СТАТИСТИЧЕСКАЯ ОЦЕНКА ДИНАМИКИ И СЕЗОННОСТИ ДОХОДОВ НАСЕЛЕНИЯ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН	179
<i>Салиходжаева Умида Абдуакбар кизи</i>	
SUN'YI INTELLEKT ASOSIDAGI TALABNI PROGNOZLASHNING CHAKANA MARKETING INNOVATSIYASINI TAKOMILLASHTIRISHDAGI ROLI.....	186
<i>Ostonaqulova Gulsaraxon Muhammadyoqub qizi</i>	
TEMIR YO'L YO'LOVCHI TASHISH KORXONALARI IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISH MODELLARI	200
<i>Eshboyev Ulug'bek Farxodovich</i>	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA MOLIYAVIY HISOBOT VA AUDIT METOLOGIYASINI TAKOMILASHTIRISH	205
<i>Zufarova Zilola Raxim qizi</i>	
TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN RISKLARNI BOSHQARISH MEXANIZMIGA TA'SIR QILUVCHI OMILLARNING EKONOMETRIK TAHLILLARI	216
<i>Rahmonqulov Temirbek Eshmamatovich</i>	
MULKIY SOLIQLARNING MAHALLIY BUDJET DAROMADLARINI SHAKLLANTIRISHDAGI TA'SIRINI BAHOLASH.....	222
<i>Aliyarov Olim Abdug'aparovich</i>	
AVTOMOBIL SANOATIDA MAHSULOT BILAN BOG'LIQ XIZMATLAR TASNIFI.....	231
<i>Saidov Dilshodbek Razzakovich</i>	
UY-JOY FONDINI SAMARALI TASHKIL QILISH VA TAKOMILLASHTIRISHNING XORIJIY TAJRIBALARI.....	236
<i>Otajonov Tohirjon Xo'janazar o'g'li</i>	
TURIZMNI IQTISODIYOTDA TO'G'RIDAN TO'G'RI TA'SIRINI STATISTIK TADQIQOTI.....	241
<i>Jumanova Zilola Tuychiyevna</i>	
RIVOJLANGAN DAVLATLAR BANK EKOTIZIMLARI VA O'ZBEKISTON BANK EKOTIZIMLARINING RIVOJLANISHI VA QIYOSIY TAHLILI	248
<i>X.R. Aliyev</i>	
O'ZBEKISTON OLIY TA'LIM TIZIMI UCHUN DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIGI ASOSIDA BOSHQARUV METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	254
<i>Abdullayev Javohir Abdumalik o'g'li</i>	
OROL BO'YI MINTAQASIDA XIZMAT KO'RSATISH SOHASINI INNOVATSION BOSHQARISHNING TASHKILYI-IQTISODIY MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	259
<i>Umarova Xusnora Dilmurod qizi</i>	



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA ISHCHI KUCHIDAN SAMARALI FOYDALANISH ISTIQBOLLARI	264
Xolmurotov Salimbek Eshbekovich	
INNOVATSION KLASTERLARNI TASHKIL ETISH VA RIVOJLANTIRISHNING MOLIYAVIY MEXANIZMI	269
Quliyev Begimqul Melikovich	
ВОПРОСЫ ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ УПРАВЛЕНИЯ ИННОВАЦИОННЫМИ ПРОЦЕССАМИ В КОММЕРЧЕСКИХ БАНКАХ	276
Ахмедов Самандар Сайфуллоевич	
АГРОЭКОТУРИЗМ КАК НАПРАВЛЕНИЕ ДИВЕРСИФИКАЦИИ ЭКОНОМИКИ СЕЛЬСКИХ ТЕРРИТОРИЙ УЗБЕКИСТАНА.....	281
Хайдаров Ойбек Зоирович	
THE IMPACT OF DIGITALIZATION ON SERVICE QUALITY AND CUSTOMER SATISFACTION IN THE HOUSEHOLD SERVICE SECTOR: EMPIRICAL EVIDENCE FROM SAMARKAND REGION	287
Pardayev Sherzod Xolmurodovich, Yuldosheva Zulfizar Sayfullayevna	
DEVELOPMENT OF INTERACTIVE MODELING METHODS FOR THE SYNTHESIS OF INTELLIGENT CONTROL SYSTEMS FOR TECHNICAL OBJECTS IN THE DIGITAL ECONOMY	293
Mamutova Aygul Kalmurzaevna	
TIJORAT BANKLARIDA INVESTITSIYA LOYIHALARINI MOLIYALASHTIRISHDA RISKLARNI BOSHQARISH MASALALARI.....	298
Abdurazakova Nasiba Sultanovna	
YANGI O'ZBEKISTON SHAROITIDA SOLIQ MA'MURIYATCHILIGI TRANSFORMATSIYASI VA UNING MOLIYAVIY XAVFSIZLIKKA TA'SIRI.....	303
Tashmuxeimova Yayra Atxamovna	
ZAMONAVIY AXBOROT TIZIMLARI ORQALI SOLIQ QARZDORLIGINI UNDIRISH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH XORIJIY DAVLATLAR TAJRIBASI ASOSIDA TAHLIL	308
Maxmadustov Jalol Maxmadustovich	
TA'LIM MIGRATSIYASI VA INTEGRATSIYA KO'RSATKICHLARINI STATISTIK TAHLILI: YEVROPA ITTIFOQI (SIRIUS) TAJRIBASI VA O'ZBEKISTON AMALIYOTI	314
Abdullayeva Gulhayot Shuhratovna	
HUDUDIY SANOAT KORXONALARI FAOLIYATINI KO'P OMILLI STATISTIK TAHLIL ETISHDAGI ILG'OR XORIJIY TAJRIBALAR VA ULARDAN FOYDALANISH YO'LLARI	319
Tag'oyev Feruz Yorqulovich	
RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ORQALI HUDUDIY INVESTITSIYA MUHITINI TAKOMILLASHTIRISH: QASHQADARYO VILOYATI MISOLIDA TAHLIL VA TAVSIYALAR.....	326
Egamberdiev Abbosxon Sherali o'g'li	
KICHIK BIZNESDA INNOVATSION FAOLIYATNI TASHKIL ETISH VA RAG'BATLANTIRISH MEXANIZMLARI	331
Nurullayev Baxrom Botirovich	
YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISHDA RIVOJLANGAN MAMLAKATLAR TAJRIBASIDAN FOYDALANISH.....	337
Ne'matova Mavsuma	
ZAMONAVIY IQTISODIYOTDA ISLOMIY MOLIYA VA NOBANK KREDIT TASHKIOTLARIDA STRATEGIK BOSHQARUVNING NAZARIY ASOSLARI	341
Galatov Abbos Alibekovich, Xalilov Nurullo Xamidillayevich	
IQTISODIY FAOLIKNI OSHIRISHGA QARATILGAN DAVLAT FISKAL SIYOSATI HOLATI TAHLILI.....	346
Xudayberginova Nigora Turgunbayevna	
MEHNATGA HAQ TO'LAHNING MOHIYATI VA ULARNI HISOBGA OLIHNING ASOSIY VAZIFALARI	356
Anvar Raximov Maxmarasulovich	
"CRADLE TO CRADLE" VA "CRADLE TO GRAVE" KONSEPSIYALARINING UMUMIY VA XUSUSIY JIHATLARI	360
Sodikov Zokir Rustamovich	
MINTAQADA PARRANDACHILIK SANOATINING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISH BOSQICHLARI	366
Qarshiyev Obidjon Egamberdiyevich	



AKSIYADORLIK JAMIYATLARINING BARQAROR RIVOJLANISH STRATEGIYALARI VA MINTAQA IQTISODIYOTIGA TA'SIRI: KEYNESIAN YONDASHUV NUQTAI NAZARIDAN.....	370
Shermatov G'ofurjon G'ulamovich	
QURILISH KORXONALARIDA INQIROZGA QARSHI BOSHQARUVNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI (ROSSIYA TAJRIBASI)	377
O'rinboyev Doniyorjon Baxtiyorjon o'g'li	
RIVOJLANGAN MAMLAKATLARDA YASHIL XIZMATLAR SEKTORINING TRANSFORMATSIYASI.....	385
Aliqulova Laylo Ziyadin qizi	
VIRTUAL TA'LIM MUHITI ORQALI TALABALARNING MULOQOT KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH OMILLARI.....	390
Bozorova Muazzam Hamid qizi, Hakimova Mushtariybonu Hamid qizi	
MINTAQA IQTISODIYOTIDA TRANSPORT INFRATUZILMASINI TAKOMILLASHTIRISH KO'RSATKICHLARINI EKONOMETRIK MODELASHTIRISH VA PROGNOZLASHTIRISH	395
Qo'ziyoyev Umarbek Ulug'bekovich	
ОЦЕНКА СТОИМОСТИ И РИСКОВ ПРЯМЫХ ИНОСТРАННЫХ ИНВЕСТИЦИЙ (FDI)	400
Бахтиярова Дильноза Мадминджановна	
XIZMAT KO'RSATISH TARMOQLARIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA VA MONOPOLIYAGA QARSHI NAZORATNING AHAMIYATI.....	407
Bekbutayev Nodirjon Fayzullayevich	
O'ZBEKISTONDA INTEGRATSIYALASHGAN YASHIL MOLIYALASHTIRISH ARHITEKTURASI: KONSEPTUAL MODEL VA AMALIY TAKLIFLAR.....	412
Qulliyev Ulug'bek Mirzayevich	
BANK TIZIMI FAOLIYATI MISOLIDA MOLIYAVIY ISLOHOTLAR SHAROITIDA KORXONALAR LIKVIDLIGINI OSHIRISH MASALALARI.....	419
Iminova Nurjahan Qodirjon qizi, Karimov Sardorbek Shuxratjon o'g'li	
BOJXONA HUDUDIDA QAYTA ISHLASH BOJXONA REJIMINING SANOAT RIVOJI VA EKSPORT SALOHİYATINI OSHIRISHDAGI O'RNI	423
Baxtiyor Abduganiyev, Nodira Saidbaxromova	
СТРАТЕГИЧЕСКАЯ РОЛЬ ИНОСТРАННЫХ ИНВЕСТИЦИЙ В СТАНОВЛЕНИИ ИННОВАЦИОННОЙ ЭКОНОМИКИ И ОБЕСПЕЧЕНИИ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ	427
Li Kristina Alekseyevna, Элназарова Шарифа Исроиловна, Эшпулатов Достонбек Боходир огли	
TOVAR-XOMASHYO BIRJASIDA SAVDO TURLARINING SHAKLLANISHI VA ULARNING BOZOR SAMARADORLIGIGA TA'SIRI	432
Xudayberdiyev Kamoliddin Ustemirovich	
THE ROLE OF CORPORATE STRUCTURES IN THE DEVELOPMENT OF GLOBAL FINANCIAL RELATIONS.....	438
Kurbaniyazov Shakhzodbek Karimovich	
BANKLARNI MODERNIZATSIYA VA TRANSFORMATSIYA QILISH JARAYONIDA INVESTITSION KREDITLASH SAMARADORLIGINI TA'MINLASH VA UNI OSHIRISHNING ASOSIY YO'LLARI	442
Tuxsanov Eldor Dilmurod o'g'li	



BANKLARNI MODERNIZATSIYA VA TRANSFORMATSIYA QILISH JARAYONIDA INVESTITSION KREDITLASH SAMARADORLIGINI TA'MINLASH VA UNI OSHIRISHNING ASOSIY YO'LLARI

Tuxsanov Eldor Dilmurod o'g'li

TDIU mustaqil izlanuvchisi

Email: elldor96@gmail.com

ORCID: 0009-0000-9661-9884

Annotatsiya. Mazkur maqolada banklarni modernizatsiya va transformatsiya qilish sharoitida investitsion kreditlash samaradorligini oshirishning nazariy-amaliy jihatlari yoritilgan. Kredit portfeli sifati, tavakkalchiliklarni boshqarish, scoring tizimining rivojlanishi va tijorat banklarida kredit qarorlarini qabul qilish jarayonining takomillashtirilishi asosiy tahlil obyekti sifatida ko'rib chiqilgan. Shuningdek, bank xizmatlarining raqamlashtirilishi, masofaviy xizmatlar ulushining oshishi, kreditga layoqatlilikni baholash modellarining qo'llanilishi hamda stress-testlashning ahamiyati ilmiy asosda tahlil etildi. Maqolada investitsion kreditlash samaradorligini ta'minlash uchun zarur bo'lgan tashkiliy, texnologik va institutsional takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: investitsion kreditlash, tijorat banklari, scoring tizimi, kredit portfeli, tavakkalchiliklarni boshqarish, bank transformatsiyasi, raqamli bank xizmatlari, stress-testlash, kreditga layoqatlilik.

Abstract. This article examines the theoretical and practical aspects of improving the efficiency of investment lending in the context of bank modernization and transformation. The study focuses on credit portfolio quality, risk management tools, the development of scoring systems, and the optimization of credit decision-making processes in commercial banks. Special attention is given to the digitalization of banking services, the expansion of remote service delivery, the application of creditworthiness assessment models, and the importance of stress testing. The paper proposes organizational, technological, and institutional measures aimed at enhancing the effectiveness of investment lending.

Key words: investment lending, commercial banks, scoring system, credit portfolio, risk management, banking transformation, digital banking, stress testing, creditworthiness.

Аннотация. В статье рассматриваются теоретические и практические аспекты повышения эффективности инвестиционного кредитования в условиях модернизации и трансформации банковского сектора. Анализируется качество кредитного портфеля, методы управления рисками, развитие скоринговых систем и совершенствование процесса принятия кредитных решений в коммерческих банках. Особое внимание уделено цифровизации банковских услуг, расширению дистанционного обслуживания, применению моделей оценки кредитоспособности и роли стресс-тестирования. В работе сформулированы организационные, технологические и институциональные предложения по повышению эффективности инвестиционного кредитования.

Ключевые слова: инвестиционное кредитование, коммерческие банки, скоринговая система, кредитный портфель, управление рисками, банковская трансформация, цифровые услуги, стресс-тестирование, кредитоспособность.

KIRISH

Banklararo raqobatning kuchayib borishi bank aktivlarini joylashtirish, ularning qaytimi va samaradorligini ta'minlashda an'anaviy yondashuvlardan voz kechishni, kreditlash samaradorligini baholashning innovatsion va zamonaviy metodlarini keng joriy etishni talab qilmoqda. Mamlakat bank tizimini isloh qilish strategiyasida kredit portfeli sifati va tavakkalchiliklarni boshqarish darajasini oshirish, kreditlash hajmlarining muvozanatli o'sishini ta'minlash, makroiqtisodiy barqarorlikka erishish, korporativ boshqaruvni takomillashtirish, tajribali menejerlarni jalb qilish hamda moliyaviy tavakkalchiliklarni baholashda ilg'or texnologik yechimlardan foydalanish bank tizimining moliyaviy barqarorligini mustahkamlashning ustuvor yo'nalishlari sifatida belgilangan.



Shu nuqtayi nazardan, investitsion kreditlash samaradorligini oshirishda tijorat banklarida kredit skoringi tizimidan foydalanish muhim o'rin tutadi. Skoring tizimi quyidagi afzalliklarni yaratadi:

- mijozning kredit tarixini chuqur o'rganish va yuqori to'lov qobiliyatiga ega qarz oluvchini aniq tanlash imkoniyati mavjud bo'lib, bu investitsion kreditlarning sifati va qaytimi oshishiga xizmat qiladi;
- skoring tizimida qarzdorlikning uzoq muddatli istiqboldagi qaytarilish imkoniyatlari baholanadi, bu esa investitsion aktivlarning muammoli kreditlar toifasiga o'tish ehtimolini kamaytiradi.

Biroq investitsion kreditlashni rivojlantirishda kredit skoring tizimining to'laqonli ishlashi bilan bog'liq bir qator muammolar mavjud.

Birinchidan, ko'pgina tijorat banklari kredit skoringini faqat kredit siyosatida qayd etilgan formal mexanizm sifatida qo'llab, amaliy jarayonda uning imkoniyatlaridan to'liq foydalanmayapti [1]. Qarz oluvchining moliyaviy barqarorligini aniqlash jarayonida skoring ko'pincha umumiy tartibdagi tahlil vositasigina bo'lib qolmoqda.

Ikkinchidan, kredit skoring samaradorligi qarz oluvchi haqida mavjud ma'lumotlar bazasining to'liqligi va ishonchlilikiga bog'liq. Shu sababli banklarda mijozlar to'g'risidagi ma'lumotlarni yig'ish, saqlash, tahlil qilish va avtomatlashtirish tizimlarini takomillashtirish zarur.

Uchinchidan, skoring tizimining mohiyati nafaqat ma'lumotlarni to'plashda, balki mazkur ma'lumotlar asosida aniq kredit qarorini shakllantirishda namoyon bo'ladi. Buning uchun esa malakali kredit mutaxassislarining yetariligi va ularning doimiy professional rivojlanishini ta'minlash muhimdir. Shuning uchun banklarda kadrlar qo'nimini kamaytirish hamda investitsion kreditlash bo'yicha yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlashga alohida e'tibor qaratilishi lozim.

So'nggi yillarda moliyaviy xizmatlarni ko'rsatish va iste'mol qilish jarayonida, shuningdek, texnologik taraqqiyotning jadallashuvi natijasida biznes, bank va moliya tizimi muhitida sezilarli o'zgarishlar yuz bermoqda. Bank xizmatlari bozorida internet va mobil texnologiyalarni keng qo'llash banklarning xizmat ko'rsatish mexanizmlarini tubdan o'zgartirib yubordi. Elektron kanallar asosidagi bank xizmatlarining rivojlanishi mijozlarga qo'shimcha qulayliklar yaratib, kreditlash jarayonlarini shaffof va samarali tashkil etishga imkon bermoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Bugungi kunda rivojlangan davlatlar bank tizimida masofaviy xizmatlar ko'lami kengaygani sababli yirik banklar tomonidan aksariyat moliyaviy xizmatlar onlayn tarzda taqdim etilmoqda. Shu munosabat bilan tijorat banklarining investitsion kreditlashni rivojlantirishda ham zamonaviy raqamli yechimlardan foydalanish dolzarb ahamiyat kasb etadi. A.I. Zhukov bank xizmatlariga quyidagicha ta'rif beradi: "Tijorat banklari xizmatlari — bank foydasiga muayyan haq evaziga, mijozning talabiga binoan bajariladigan bank operatsiyalari yig'indisi" [2]. Mazkur ta'rif kreditlash jarayonida ko'rsatiladigan xizmatlarning iqtisodiy mazmunini ochib berib, investitsion kreditlash sifatini oshirishda xizmatlarning texnologik jihatdan takomillashtirilishi muhimligini ko'rsatadi.

Bank xizmatlarining elektron shaklga o'tishi masalalariga oid ilk fundamental tadqiqotlar Xalqaro hisob-kitoblar banki qoshidagi Bazal qo'mitasi tomonidan amalga oshirilgan. Mazkur qo'mita tomonidan 1974-yildan buyon elektron bank xizmatlarini tartibga solish hamda ularni baholash bo'yicha ishchi guruh faoliyat yuritib, 2000-yilda "Cross-Border Electronic Banking Issues for Bank Supervisors" nomli xalqaro hisobotni ishlab chiqdi [3].

Shuningdek, ushbu yo'nalish Xalqaro valyuta jamg'armasi (XVJ) va G10 davlatlari tomonidan o'tkazilgan ilmiy-amaliy tadqiqotlarda ham atroflicha yoritilgan [4].

Mijozlarning kreditga layoqatlilikini baholash usullari rivojlanishida M.N. Konyagina va Ya.A. Klishina tadqiqotlari muhim ahamiyatga ega bo'lib, ular korporativ mijozlarning kreditga layoqatlilikini baholashni tasnifiy va kompleks modellarga ajratgan [5].

O'zbekistonlik iqtisodchi olim M. Rustamov esa jahon amaliyotida mijozning kreditga layoqatlilikini baholashning uchta an'anaviy modeli mavjudligini ta'kidlaydi:

- mustaqil reyting agentliklari modeli;
- statistik baholash modeli;
- ekspert baholash modeli [6].

Bu yondashuvlar investitsion kreditlarning sifatini nazorat qilishda ham qo'llanilishi mumkin. Aktivlar sifatini baholashda amal qilinadigan reyting tizimining shakllanishi xalqaro moliya institutlari tomonidan mamlakatlar iqtisodiy siyosatini tahlil qilish zarurati bilan bog'liq bo'lgan. Jahon banki tomonidan iqtisodiy siyosat va institutsional rivojlanishni baholash metodikasi ishlab chiqilgani reyting tizimining shakllanishiga asos bo'lgan. Keyinchalik Jahon iqtisodiy forumi 1979-yildan boshlab mamlakatlar reytingi hamda global raqobatbardoshlik indeksini e'lon qila boshladi. Bank faoliyati tarixiga nazar tashlansa, dastlab sarroflik faoliyati doirasida pul mablag'larini saqlash, boshqarish va muomalaga kiritish amaliyotlari shakllangan. Keyinchalik kreditlar berish, omonatlarni jalb qilish va hisob-kitob operatsiyalarini amalga oshirish bo'yicha faoliyatlar kengayib, bugungi tijorat banklarining aktiv amaliyotlariga asos solgan [7].



Fikrimizcha, investitsion kreditlash samaradorligini oshirishda tijorat banklarida aktivlar sifatini baholovchi stress-testlash tizimini dasturiy shaklda joriy etish nihoyatda muhim. Mazkur jarayonda dasturiy mahsulot ishlab chiqaruvchi IT-kompaniyalarni jalb qilish maqsadga muvofiq. Shu bilan birga, bank xodimlarining stress-test natijalarini tahlil qilish, xulosalarni umumlashtirish va qaror qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantirish zarur.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu maqolani tayyorlashda me'yoriy-huquqiy hujjatlar, foydalanilgan adabiyotlar va internet manbalarining rasmiyligi, shuningdek, iqtisodchi olimlarning mavzuga oid ilmiy-nazariy qarashlari qiyosiy hamda tanqidiy tahlil qilindi. Mavzuni o'rganish jarayonida umumiy iqtisodiy usullar bilan bir qatorda tizimli tahlil, umumlashtirish, abstrakt-mantiqiy fikrlash va statistik usullardan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Bugungi kunda tijorat banklari tomonidan aktivlarni diversifikatsiyalash usuli bank aktivlar portfelining optimal tarkibiy tuzilmasini shakllantirishni nazarda tutadi. Ushbu usulda aktiv amaliyotlarining tarmoq riskini kamaytirish va barqaror daromadlilikni ta'minlash muhim ahamiyat kasb etadi. Aktivlar portfeli va omillar tahlili usullari qatorida kredit skoringi usuli alohida o'rin tutadi.

Kredit skoringi usuli dastlab jismoniy shaxslarga iste'mol kreditlarini ajratishda ularning moliyaviy holatini aniqlash va maqbul qarz oluvchini tanlash muammosini hal etish maqsadida 1940-yillarda amerikalik iqtisodchi D. Duran tomonidan ishlab chiqilgan. Mazkur usul dastlab jismoniy shaxslar moliyaviy holatini baholash modeli sifatida shakllangan bo'lsa-da, hozirgi kunda qarz oluvchilarning moliyaviy barqarorligini baholashning ishonchli universal vositasi sifatida keng qo'llanilmoqda.

Kredit skoringi usuliga xos asosiy jihatlar quyidagilardan iborat:

- mazkur usul orqali qarz oluvchilarning kredit reytingi ko'rsatkichlari aniqlanadi;
- reytingni aniqlash jarayonida mijozlar moliyaviy holatidan kelib chiqib ma'lum toifalarga (sinf) ajratiladi;
- skoring tizimi qarz oluvchining moliyaviy ko'rsatkichlarini ballik baholash tizimi asosida o'lchashni nazarda tutadi;
- skoring nafaqat kreditga layoqatlilik darajasini, balki qarz oluvchining defoltga uchrash ehtimolini, kreditning qisman qoplanish istiqbolini ham baholash imkonini beradi.

Tahlillarimizga ko'ra, tijorat banklarida kredit skoringi usulini qo'llash aktivlar samaradorligini oshirish borasida quyidagi afzalliklarni yaratadi:

- mijozning kredit tarixini chuqur o'rganish orqali yuqori salohiyatga ega qarz oluvchini aniq aniqlash imkoniyati mavjud bo'lib, bu kredit portfeli sifatini ta'minlashda muhim omil hisoblanadi;
- skoring tizimida qarzdorlikni uzoq muddatli istiqbolda undirish imkoniyatining baholanishi kreditning muammoli aktivlar toifasiga o'tish ehtimolini sezilarli darajada kamaytiradi (1-jadval).

1-jadval. Tijorat banklari tomonidan jismoniy shaxslarni kreditlashni tashkil etish tartibi

Bosqichlar	Bosqich nomi	Ishtirokchilar
1-bosqich	Mijoz (kafilni) identifikatsiya qilish	Mijoz / Front-ofis xodimi / FACE ID tizimi
2-bosqich	Bank dasturi orqali kredit olish uchun arizani shakllantirish	Dastur / Garov xodimi / Anderayter / Tashqi tizimlar / Front-ofis xodimi / ABT / Mijoz
3-bosqich	Kredit olish uchun ariza berish bo'yicha mukofol qaror qabul qilish	Bank dasturi / Garov xodimi / Anderayter / Tashqi tizimlar / Front-ofis xodimi / ABT / Mijoz
4-bosqich	Kredit shartnomasini tuzish	Bank xodimi / Tashqi tizimlar / Old ofis xodimi / ABT / Mijoz
5-bosqich	Kredit ajratish	Front-ofis xodimi / Middl ofis xodimi / Bosh bank xodimi / ABT / Tashqi tizimlar
6-bosqich	Kredit berishni rad etish	Front-ofis xodimi / Yurist ofis xodimi / Soliq / Tashqi tizimlar
7-bosqich	"Jismoniy shaxsga kredit berish" jarayonini samaradorligini oshirish	Bosh ofis bo'limi (biznes jarayon egasi) / Muvofiqlik tuzilmasi / 2-chi himoya liniyasi / Vakolatli organ



Skoring tizimi natijalari ko'plab o'zaro bog'liq omillarga tayanadi va kredit riskini baholashda faqat mijozning kredit tarixiga suyanish yetarli hisoblanmaydi. Xalqaro bank amaliyotida skoring ko'rsatkichlarini shakllantirish jarayonida jismoniy shaxsning oilaviy holati, banklardagi hisobvaraqlari va ulardagi moliyaviy aylanmalar dinamikasi, soliq, kommunal hamda boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha to'lov intizomi, shuningdek, muddatli to'lovlar yuzasidan mavjud qarzdorlik holati kabi omillar kompleks tarzda tahlil qilinadi. Bunda mijozning moliyaviy xulq-atvori va to'lov madaniyatini chuqurroq baholash imkonini beruvchi iqtisodiy modellashtirish usullari hamda matematik-statistik hisob-kitoblardan keng foydalaniladi.

Shu bilan birga, mamlakatimiz banklari amaliyotida kredit skoringi tizimini talab darajasida joriy etish va undan samarali foydalanish bilan bog'liq muammoli jihatlar mavjudligi kuzatiladi. Jumladan, ayrim hollarda axborot bazalarining yetarli darajada integratsiyalanmagani, mijozlar to'g'risidagi ma'lumotlarning to'liqligi va aniqligi bilan bog'liq cheklolar, shuningdek, zamonaviy analitik va prognozlash modellarining cheklangan qo'llanilishi skoring natijalarining ishonchligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Natijada kreditga layoqatlilikni baholash jarayoni to'liq obyektiv bo'lmay, banklar uchun tavakkalchilik darajasining oshishiga olib kelishi mumkin. Shu bois kredit skoringi tizimini takomillashtirish, ilg'or xalqaro tajribalarni joriy etish hamda axborot-tahliliy infratuzilmani rivojlantirish bank kredit siyosatining muhim ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida qaralishi lozim.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, tijorat banklarida investitsion kreditlar ajratish jarayonining samaradorligini oshirish, avvalo, qaror qabul qilish tizimining institutsional, axborot-tahliliy va tashkiliy jihatdan mukammallashtirishni taqozo etadi. Yuqori malakali mutaxassislar ishtirokida shakllantirilgan kredit siyosati, raqamli texnologiyalar asosida takomillashtirilgan skoring va monitoring tizimlari hamda avtomatlashtirilgan hisobot mexanizmlari bank aktivlari holatini real vaqt rejimida baholash imkonini beradi. Bu esa aktivlar portfeli sifatidagi o'zgarishlarga tezkor munosabat bildirish, yuzaga kelayotgan xatarlarni erta bosqichda aniqlash va ularning salbiy oqibatlarini minimallashtirishga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, bank ichki boshqaruv tizimida Kengash, Boshqaruv va nazorat tuzilmalari o'rtasidagi funksional uyg'unlikni kuchaytirish investitsion kreditlash jarayonida strategik yondashuvni shakllantiradi. Aktivlarni diversifikatsiya qilish, daromadlilik va likvidlik ko'rsatkichlarini muvozanatda saqlash hamda tavakkalchiliklarni boshqarish bo'yicha qarorlarning yuqori darajada muvofiqlashtirilishi bank faoliyatining barqarorligini ta'minlaydi. Natijada investitsion kreditlash nafaqat qisqa muddatli moliyaviy natijalarga erishish vositasi, balki bank tizimining raqobatbardoshligini oshiruvchi, moliyaviy barqarorlikni mustahkamlovchi va uzoq muddatli strategik transformatsiyani qo'llab-quvvatlovchi muhim omil sifatida namoyon bo'ladi.

FOYDANALINGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 12.05.2020 yildagi "2020 — 2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida"gi PF-5992-son Farmoni // <https://lex.uz/docs/-4811025>
2. Жуков А.И. Банковские операции и услуги. – М.: Финансы и статистика, 2019.
3. Basel Committee on Banking Supervision. Cross-Border Electronic Banking Issues for Bank Supervisors. – Basel: BIS, 2000.
4. International Monetary Fund. Financial Stability Report. – Washington, D.C.: IMF, turli yillar.
5. Конягина М.Н., Клишина Я.А. Оценка кредитоспособности корпоративных клиентов. – М.: 2018.
6. Rustamov M. Bank kreditlash amaliyoti va risklarni boshqarish: monografiya. – T.: 2021. – 206 b.
7. World Economic Forum. The Global Competitiveness Report. – Geneva: WEF, 1979–2023.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 1

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>